

UDC: 347.725(042)(575.1)
ORCID: 0000-0001-7533-6949

KORPORATSIYANI BOSHQARISHDA FIDUSIAR MAJBURIYATLAR VA ULARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Ibrohimov Azimjon Abdumo‘min o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Fuqarolik huquqi” kafedrası o‘qituvchisi,
e-mail: yurist_0990@mail.ru

Annotatsiya. Hozirda mamlakatimiz fuqarolik huquqini takomillashtirishga oid keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buni korporativ huquqiy munosabatlarga oid qoidalarda ham ko‘rish mumkin. Jumladan, yuridik shaxs faoliyatiga daxldor o‘zgarishlardan biri yuridik shaxs boshqaruvchilarining fidusiar majburiyatlariga oid. Korporativ huquqda yuridik shaxsning boshqaruv organlarining fidusiar majburiyatlari markaziy masalalardan hisoblanadi. Yuridik shaxsni to‘g‘ri va samarali boshqarish ko‘p jihatdan boshqaruv organlarining fidusiar majburiyatlari qay darajada tartibga solingani va ularga rioya etilishi bilan belgilanadi. Shuningdek, fidusiar majburiyatlarga rioya etmaslik boshqaruv organlari uchun yuridik shaxs oldida yuzaga keladigan javobgarlik asosi sanaladi. Ingliz-amerika korporativ huquqida korporatsiya direktorining fidusiar majburiyatlari umumiy tarzda: lozim darajadagi g‘amxo‘rlik (*duty of due care*), sodiqlik (*duty of loyalty*) hamda halollik (*duty of good faith*) majburiyatlaridan iborat ekanligi ko‘rsatiladi. Rossiya Federatsiyasi korporativ huquqida esa yuridik shaxs boshqaruv organlarining yuridik shaxs manfaatlarini ko‘zlab, halol va oqilona ish yuritishi lozimligi belgilangan hamda ushbu fidusiar majburiyatlar buzilishi ularning yuridik shaxs oldidagi javobgarligi asosi sifatida mustahkamlangan va sud amaliyoti hujjatlarida ularning mazmuni aniqlashtirilgan. Mazkur ishda AQSH, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi hamda sud amaliyoti asosida yuridik shaxs boshqaruv organlarining fidusiar majburiyatlari tahlil etiladi hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi korporativ huquqida qo‘llash va ushbu institutni takomillashtirish istiqbollari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: fidusiar majburiyatlar, lozim darajada g‘amxo‘rlik majburiyati (*duty of due care*), sodiqlik majburiyati (*duty of loyalty*), halollik majburiyati (*duty of good faith*), yuridik shaxs manfaatlarini, halollik va oqilonalik.

ФИДУЦИАРНЫЕ ОБЯЗАННОСТИ В УПРАВЛЕНИИ КОРПОРАЦИЕЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Иброхимов Азимжон Абдудумин угли,
преподаватель кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В настоящее время в нашей стране проводятся комплексные реформы по совершенствованию гражданского права. Это также можно увидеть в правилах корпоративного права. В частности, одна из реформ касается фидуциарных обязанностей менеджеров юридического лица. В корпоративном праве одним из центральных вопросов являются фидуциарные обязанности органов управления юридического лица. Надлежащее и эффективное управление юридическим лицом во многом определяется степенью регулирования и соблюдения фидуциарных обязательств органов управления юридического лица. Несоблюдение фидуциарных обязательств также является основанием для ответственности органов управления перед юридическим лицом. Англо-американское корпоративное право гласит, что фидуциарные обязанности директора корпорации состоят из обязанности: проявлять должную заботливость (*duty of due care*), лояльность (*duty of loyalty*) и добросовестность (*duty of good faith*). К примеру, корпоративное право Российской Федерации предусматривает, что органы управления юридического лица должны действовать добросовестно и разумно в интересах юридического лица, а нарушение этих фидуциарных обязательств является основанием их ответственности перед юридическим

лицом. В данной работе анализируются фидуциарные обязанности органов управления юридических лиц на основе законодательства и судебной практики США и Российской Федерации и обсуждаются перспективы применения и совершенствования этих обязанностей в корпоративном праве Республики Узбекистан.

Ключевые слова: фидуциарные обязанности, обязанность лояльности (*duty of loyalty*), обязанность должной заботливости (*duty of due care*), обязанность добросовестности (*duty of good faith*), интересы юридического лица, разумность и добросовестность.

FIDUCIARY DUTIES IN THE MANAGEMENT OF THE CORPORATION AND THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN

Ibrokhimov Azimjon Abdumomin oqli,
The lecturer of Civil Law Department
of Tashkent State University of Law

Abstract. At present, comprehensive reforms are being implemented to improve civil law in our country. This can also be seen in the rules of corporate law. In particular, one of the reforms is related to the fiduciary duties of the managers of the legal entity. In corporate law, the fiduciary duties of the governing body of a legal entity are one of central issues. Proper and effective management of a legal entity is largely determined by the extent to which the fiduciary duties of the governing bodies are regulated and adhered to. Failure to comply with fiduciary duties is also the basis for liability of the governing body to the legal entity. Anglo-American corporate law states that the fiduciary duties of the managers of a corporation consist of duty of due care, duty of loyalty, and duty of good faith. The corporate law of the Russian Federation provides that the governing bodies of a legal entity must act in good faith and reasonably in the interests of the legal entity, and violation of these fiduciary duties is the basis of their responsibility to the legal entity. This paper analyzes the fiduciary duties of the management bodies of legal entities based on the legislation and judicial practice of the United States and the Russian Federation and discusses the prospects for applying and improving these duties in the corporate law of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: fiduciary duties, duty of loyalty, duty of due care, duty of good faith, interests of a legal entity, rationality and good faith.

Kirish

Hozirda mamlakatimizda fuqarolik huquqini takomillashtirishga oid keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlarga mos qoidalar belgilashni maqsad qilib qoʻygan Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasida [1] muhim oʻzgarishlar nazarda tutilmoqda. Buni korporativ huquqiy munosabatlarga oid qoidalarda ham koʻrish mumkin. Jumladan, Kodeks loyihasiga muvofiq, korporativ huquqiy munosabatlar oʻziga xos xususiyatlarga ega alohida fuqarolik huquqiy munosabat ekanligi eʼtirof etilgan, yuridik shaxs mazmuni va turlariga oid yangiliklar nazarda tutilgan. Yuridik shaxs faoliyatiga daxldor oʻzgarishlardan yana biri yuridik shaxs boshqaruvchilarining fidusiar majburiyatlariga oid boʻlib, quyida uning mohiyati va amaliyotda qoʻllash istiqbollarga toʻxtalib oʻtamiz.

Material va metodlar

“Fidusiya” (*lot. ishonch*) tushunchasi qadimgi Rim huquqida vujudga kelib, dastlab qaytarib

olish huquqi bilan mulkni boshqa shaxsga topshirishni nazarda tutgan [2].

Umumiy maʼnoda fidusiar munosabatlar deganda, ikki yoki undan ortiq shaxslar oʻrtasida pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulkni boshqarish bilan bogʻliq holda vujudga keladigan, ishonchga asoslangan axloqiy va huquqiy munosabatlar tushuniladi. Fidusiar munosabat mohiyatiga koʻra bir shaxs (*fidusiar*) boshqa shaxs (*ishonch bildiruvchi*) nomidan uning manfaatlarini yoʻlida harakat qiladi hamda fidusiarida tegishli mol-mulkka oid qarorlarni qabul qilishda diskretion vakolat mavjud boʻladi [3, 2-b.].

Barcha turdagi fidusiar majburiyatlar quyidagi xususiyatlarga ega boʻlishi qayd etiladi: ishonch bildiruvchiga nisbatan sodiqlik; halol harakat qilish; ishonch bildiruvchi roziligisiz fidusiariga ishonib topshirilgan ishdan shaxsiy foyda olmaslik va oʻz vakolatlaridan uchinchi shaxslar manfaati uchun foydalanmaslik; manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻymaslik [4, 130-b.].

Tadqiqot natijalari

Qadimgi Rim huquqida ishonchga asoslangan munosabatlar topshiriq shartnomasi (*mandatum*), sherikchilik shartnomasi (*societas*), ssuda (*commadatum*), omonat saqlash (*depositum*) kabi bitimlarda aks etgan [5, 26-b.]. Fidusiar majburiyatlar trastlarda ishonchli boshqaruvchilarga nisbatan, vakillik munosabatlarida agentlarga nisbatan, korporativ munosabatlarda esa korporatsiyani boshqaruvchi shaxslarga nisbatan ham o'rnatiladi [6, 2-b.]. Quyida oxirgi qayd etilgan shaxslarning fidusiar majburiyatlariga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Ingliz-amerika korporativ huquqida korporatsiya direktorining fidusiar majburiyatlari umumiy tarzda lozim darajadagi g'amxo'rlik (*duty of due care*), sodiqlik (*duty of loyalty*) hamda halollik (*duty of good faith*) majburiyatlaridan iborat ekanligi ko'rsatiladi.

AQSH Korporativ boshqaruv prinsiplarida direktorning, asosan, ikki fidusiar majburiyati qayd etiladi. Ya'ni direktor o'z vazifalarini o'xshash holatlarda oqilona shaxs nuqtayi nazaridan kelib chiqib, kompaniya manfaatlari uchun eng maqbul tarzda g'amxo'rlik ko'rsatib bajarishi lozim (*duty of due care*). Kompaniyaga sodiqlik majburiyati esa direktorga kompaniya bilan bitim tuzishda o'z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlardan kompaniya manfaatlari ustun ko'rish hamda tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitim haqida kompaniyani xabardor etish va bunga rozilik olish talablarini qo'yadi.

Amerika yurisprudensiyasi korporatsiyalari (American Jurisprudence (Second) Corporations) direktorning fidusiar majburiyatlari sifatida g'amxo'rlik (*duty of care*), sodiqlik (*duty of loyalty*) va halollik (*duty of good faith*) majburiyatlarini ko'rsatadi.

Lozim darajadagi g'amxo'rlik ko'rsatish majburiyati direktordan kompaniyaga nisbatan lozim darajada harakatlar amalga oshirish, g'amxo'rlik va oqilona aqliy qobiliyat ko'rsatish (*reasonable intellegence*) kabilarni talab qiladi. Shuningdek, ushbu majburiyatga ko'ra, direktor kompaniya faoliyati bo'yicha yuzaga keladigan masalalar haqida tegishli ma'lumotlardan ham xabardor bo'lib borishi kerak. Jumladan, direktor kompaniya manfaatlari yo'lida lozim darajada g'amxo'rlik ko'rsatganligiga asos qilib, barcha muhim statistik ma'lumotlarni, mutaxassis maslahatlariga murojaat etganligini keltirishi mumkin [7].

Adabiyotlarda kompaniya direktorining g'amxo'rlik majburiyatini ta'minlovchi xatti-harakatlari ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, direktor kompaniya manfaatlari yo'lida lozim darajada g'amxo'rlik ko'rsatishi uchun kompaniya faoliyati yuzasidan qabul qilinadigan qarorlardan xabardor bo'lishi; kompaniyani boshqarishda aktiv ishtirok etishi, kompaniya ishlari qay tarzda ketayotganligini kuzatib borishi; maxsus bilim yoki katta kuch talab etiladigan masalalar yuzaga kelgan hollarda qo'mitalar tashkil etishi, bunda qo'mitalar boshqaruv masalalarini hal etishda direktorga ko'maklashuvchi subyekt bo'ladi, ushbu masalalar yuzasidan javobgarlik esa direktor zimmasida qolaveradi; direktorlar yig'ilishi bayonnomalarining aniq va lozim darajada yuritilishini ta'minlashi; kompaniyaning buxgalteriya, moliyaviy hisobotlari kabi ichki hujjatlardan xabardor bo'lishi; tashqi yoki ichki audit xizmati faoliyati vositasida kompaniyaning buxgalteriya va moliyaviy hisobotlari to'g'riligi hamda aniqligini ta'minlashi; kompaniya mol-mulkinging muhofaza etilishi, saqlanishi, boshqarilishi, shuningdek investitsiya qilinishini ta'minlashi; kompaniya xodimlari va mansabdor shaxslari faoliyati ustidan nazoratni tashkil etishi, noto'g'ri faoliyat yoki talon-toroj haqidagi xabarlar va ogohlantirishlarni tekshirishi, huquqbuzarlik aniqlangan tegishli holatlarda vakolatli subyektlarni xabardor etishi lozim [8, 17-b.].

G'amxo'rlik ko'rsatish majburiyati yuzasidan nizo chiqqan hollarda direktorni javobgarlikdan ozod qiluvchi biznes tavakkalchiligi qoidasi (*business judgment rule*) hisobga olinadi. Unga ko'ra, kompaniya manfaatlari yo'lida, oldindan ko'rib bo'lmaydigan odatdagi tijorat tavakkalchiligi sharoitida qabul qilgan qarorlar ko'zlangan natijalarni bermagan bo'lsa-da, direktor zimmasiga zararni qoplash majburiyatini yuklash istisno etiladi [7].

Direktorning kompaniya manfaatlari yo'lida o'zining shaxsiy manfaatlardan kompaniya manfaatlari ustun qo'yib faoliyat olib borishi esa sodiqlik majburiyatini tashkil etadi (*duty of loyalty*). Mazkur majburiyat buziladigan eng ko'p holat direktor tomonidan kompaniya nomidan shaxsiy manfaatdorlik bo'lgan bitim tuzilishida namoyon bo'ladi.

Ushbu fidusiar majburiyatga oid sud pretseidentlaridan biri Delaver Shtati Oliy sudi tomonidan ko'rib chiqilgan *Guth v. Loft inc.* ishida [9] shakllangan. Unga ko'ra, *Charlz Guth* karamel va

salqin ichimliklar ishlab chiqaruvchi *Loft Inc.* kompaniyasi prezidenti bo'lgani holda *Pepsi-cola* kompaniyasini tuzib, *Loft Inc.* kompaniyasining zavodi, materiallari, moliyaviy mablag'lari, xodimlari kabi aktivlarini o'z kompaniyasini rivojlantirish uchun yo'naltiradi, shuningdek, mazkur kompaniya ishlab chiqargan siroplarni *Loft Inc.* kompaniyasiga sotadi.

Loft Inc. kompaniyasi ushbu holat bo'yicha *Charlz Guthga* nisbatan sudga murojaat qiladi. Mazkur ish doirasida Delaver Shtati Oliy sudi tomonidan kompaniyaga sodiqlik majburiyatiga oid bir nechta xulosalar shakllantirilgan. Xususan, sodiqlik majburiyati bo'yicha kompaniya direktori o'z vakolatlaridan faqat kompaniya manfaatlarini yo'lida foydalanishi lozimligi, shaxsiy manfaatdorlik bo'lmasligi nazarda tutiladi. Sodiqlik majburiyati aktiv va passiv shaklda bo'lishi mumkin: direktorning kompaniya manfaatlarini yo'lida harakat qilishi uning aktiv majburiyatlarini nazarda tutsa, kompaniya bilan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik (ya'ni kompaniya nomidan tuziladigan bitimlar, amalga oshiriladigan operatsiyalardan shaxsiy manfaat ko'zlamaslik), kompaniyaning moddiy mol-mulki, shuningdek, nomoddiy aktivlari (tijorat siri, tovar belgisi, gudvill)dan kompaniya faoliyati maqsadlaridan boshqa maqsadlarda foydalanmaslik, kompaniya bilan raqobat qilmaslik direktorning passiv majburiyatlarini tashkil etadi.

Amerika korporativ huquqida halollik majburiyatining (*duty of good faith*) mustaqil fidusiar majburiyat ekanligi yuzasidan munozarali fikrlar yuzaga kelgan. Jumladan, Delaver Shtati Oliy sudi *Stone v. Ritter* ishida ham halollik majburiyatiga to'xtalib, uni sodiqlik majburiyati elementi sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, halollik majburiyati sodiqlik va g'amxo'rlik standartlari kabi alohida majburiyatni ifodalamaydi. Halollik bu sodiqlik majburiyati amalga oshirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Direktor o'z majburiyatlarini qasddan bajarmasa, ongli ravishda majburiyatlariga loqaydlik, e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lsa, halollik majburiyati buzilgan deb hisoblash mumkin bo'ladi [8, 29-b.].

Nemis korporativ huquqida direktorning fidusiar majburiyatlari sifatida AQSH misolida sanab o'tilganlardan tashqari kuzatuv kengashi roziligi-siz boshqa yuridik shaxslar boshqaruv organlarida ishtirok etmaslik, kompaniya bilan raqobat

munosabatlari yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, ya'ni kompaniya faoliyati predmeti hisoblangan biznes sektorda mustaqil faoliyat olib bormaslik yoki boshqa shaxslar manfaatlarini uchun vakillik qilmaslik, shuningdek, kompaniya faoliyatiga doir sir tutilishi lozim bo'lgan axborot maxfiyligiga rioya etish kabilar bevosita mustahkamlangan [10, 339-b]. Ingliz korporativ huquqida esa direktorning ish yuritishda uchinchi shaxslar ta'siridan xoli bo'lgan aktiv pozitsiyani egallab, mustaqil boshqaruvchi bo'lish majburiyati ham nazarda tutiladi [11, 101-b.].

Rivojlangan mamlakatlar korporativ huquqida shakllangan qarashlarga asosan yondashadigan bo'lsak, milliy qonunchilikda ham ma'lum darajada yuridik shaxs boshqaruvchilarining fidusiar majburiyatlariga oid qoidalar o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi hamda "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlariga asosan, jamiyatni boshqarishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish maqsadida jamiyat boshqaruvchilari va ularning affillangan shaxslari doirasi belgilanadi va ular bilan bitim tuzishning alohida tartibi nazarda tutiladi. Xuddi shunday tartib jamiyat tomonidan yirik bitimlarni tuzish holarida ham amal qiladi. Jamiyat faoliyati, undagi moliya-xo'jalik faoliyati jamiyat hisobotlarida aks ettiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni 11-moddasiga asosan, jamiyatlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va ularning belgilangan tartibda yuritilishini ta'minlash jamiyat rahbari zimmasidagi majburiyat hisoblanadi.

Bundan tashqari, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 81-moddasida faqat aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yuridik shaxslar uchun javobgarlik xavfi bilan boshqaruv organlari majburiyatlari nazarda tutiladi. Unga ko'ra, boshqaruv organlari bila turib chalg'ituvchi yoki yolg'on axborot taqdim etganlik; ushbu qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik; jamiyatga zarar yetkazilishiga olib kelgan yirik bitimlar va/yoki amalga oshirilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan, jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan

foйда (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik uchun jamiyat oldida javobgar boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan va qoʻshimcha mas’uliyatli jamiyatlar toʻgʻrisida”gi hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunlarining tegishli 42- va 81-moddalariga muvofiq, jamiyat boshqaruv organlari oʻz huquqlarini amalga oshirishda va oʻz majburiyatlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini koʻzlab, halol va oqilona harakat qilishlari lozimligi mustahkamlangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45-moddasiga koʻra esa qonunga yoki yuridik shaxsning taʼsis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs oʻzi vakili boʻlgan yuridik shaxs manfaatlarini yoʻlida halol va oqilona ish olib borishi kerak.

Ushbu normalarda yuridik shaxsni boshqaruvchi va uning nomidan ish yurituvchi shaxslarning fidusiar majburiyatlari sifatida “yuridik shaxs manfaatlarini koʻzlab ish olib borish”, “halollik” va “oqilonalik” talablari nazarda tutiladi. Qonunchilikda yuridik shaxs manfaatlarini, halollik va oqilonalik atamalarini ishlatilgani holda, ularning mazmuni ochib berilmagan. Mazkur kategoriyalar baholanuvchi tushunchalar hisoblanib, fuqarolik obroti ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabatlarining faktik holatlariga qarab, ularning legal mazmuni sud tomonidan aniqlanishi kerak. Adabiyotlarda mazkur tushunchalar mazmuniga toʻxtalib oʻtiladi. Xususan, yuridik shaxs manfaatlarini deganda, I.A. Turbina yuridik shaxsning tizimli ravishda foyda olishi hamda ishtirokchilar/aksiyadorlar manfaatlarini qondirilishini tushunadi, shuningdek, bunda kontragentlar bilan munosabatlarni mustahkamlash, xodimlar manfaatlarini, kompaniya faoliyatining jamiyat va atrof-muhitga taʼsiri, kompaniyaning ishchanlik obroʻsining taʼminlanishi kabi jihatlar hisobga olinishi kerakligini taʼkidlaydi [11, 16-b.].

YE.A. Suxanovning fikriga koʻra, oqilonalik deganda, holatni anglab yetganlik, xulq-atvorining mantiqiylik va maqsadga muvofiq ekanligi nazarda tutiladi.

Halollik esa shaxsning subyektiv holati hisoblanib, shaxs oʻzining unga berilgan huquqqa nomuvofiq harakat qilayotganligini bilmasligi va bilishi mumkin ham boʻlmasligida namoyon boʻla-

di. Shaxs unga berilgan huquqdan uning maqsadlariga muvofiq tarzda foydalanayotganligini nazarda tutib harakat qiladi. Halollik kategoriyasi oʻzining asoslarini Rim huquqida amal qilgan “*bona fides*” – “ezgu xulq” prinsipidan oladi [12, 360-b]. Bundan tashqari, fidusiar munosabatlar mamlakatimiz olimlaridan O. Okyulov [13], N. Imomov [14], B. Topildiyev [15], Oʻ. Xolmirzayev [16], D. Imomniyozov [17] hamda B. Qoryogʻdiyev [18] kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Shu tarzda milliy qonunchilikda yuridik shaxsni boshqarishga oid fidusiar majburiyatlar mohiyatini tashkil etuvchi qoidalar turli qonun hujjatlarida nazarda tutilgan. Biroq rivojlangan huquq tizimlarida mustahkamlangan bir qator fidusiar majburiyatlar, jumladan, tashqi aralashuvsiz mustaqil faoliyat olib borish, qaror qabul qilishda unga asos boʻladigan zarur va yetarli darajada maʼlumot yigʻish hamda ularni inobatga olgan holda qaror qabul qilish, yuridik shaxs faoliyatida sir tutilishi kerak boʻlgan axborot (masalan, tijorat siri) maxfiyligini taʼminlash, yuridik shaxsning biznes imkoniyatlaridan oʻz manfaati yoʻlida foydalanmaslik (masalan, kompaniyaning moddiy va nomoddiy aktivlarini oʻzining shaxsiy ehtiyojlariga, shaxsiy biznesiga yoʻnaltirmaslik), tegishli faoliyat sohasida yuridik shaxs bilan nazorat qiluvchi organlar roziligisiz raqobat qilmaslik kabilar bevosita belgilanmagan. Qolaversa, “yuridik shaxs manfaatlarini yoʻlida harakat qilish”, “halollik” va “oqilonalik” standartlari mazmuni umumiy tarzda belgilangan, ularning mazmunini aniqlashtirishga xizmat qiladigan yoʻnalish beruvchi holatlar koʻrsatib oʻtilmagan, boshqaruv organlarining alohida majburiyatlari bilan standartlar mazmunining tizimlashtirilgan holda mantiqiy bogʻliqligi aks ettirilmagan.

Bu borada Rossiya Federatsiyasi korporativ huquqiga murojaat qiladigan boʻlsak, Fuqarolik kodeksining [19] 53- va 53.1-moddalari, “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar toʻgʻrisida”gi qonunning [20] 44-moddasi hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari toʻgʻrisida”gi qonunning [21] 71-moddasi qoidalarida yuridik shaxs boshqaruv organlarining yuridik shaxs manfaatlarini koʻzlab, halol va oqilona ish yuritishi lozimligi belgilangan hamda ushbu fidusiar majburiyatlar buzilishi ularning yuridik shaxs oldidagi javobgarligi asosi sifatida mustahkamlangan. Rossiya Federatsiyasi Oliy Arbitraj Sudi Plenumining “Yuridik shaxs organlari

tarkibiga kiruvchi shaxslar tomonidan yetkazilgan zararlarni qoplashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida [22] esa halollik va oqilonalik standartlarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida ularning mazmuniga oid yo'nalish beruvchi holatlar sanab o'tilgan. Jumladan, ushbu qarorning 2-bandiga ko'ra, *quyidagi holatlar halollik standartining buzilishi hisoblanadi:*

direktor (uning affillangan shaxslari) va yuridik shaxs manfaatlari to'qnashuvi mavjud bo'lgani holda faoliyat yuritish, jumladan, amalga oshirilishidan amalda (fakticheski) manfaatdorligi bo'lgan bitimlarni tuzish, bundan manfaatdorlik haqida yuridik shaxs nazorat qiluvchi organlariga o'z vaqtida ma'lum qilish va belgilangan tartibda rozilik olish hollari mustasno;

tuzilgan bitimlar haqidagi ma'lumotlarni yuridik shaxs ishtirokchilari/aksiyadorlaridan yashirish (jumladan, yuridik shaxs faoliyatiga doir tegishli hisobotlarga kiritmaslik) yoki bunday ma'lumotlarni buzib ko'rsatish;

yuridik shaxs ustavi va qonun hujjatlariga asosan, rozilik olish talab etiladigan bitimlarni shunday rozilik olmasdan tuzish;

vakolati tugatilganidan so'ng kelgusida yuridik shaxs uchun noqulay oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarga taalluqli hujjatlarni o'zida ushlab turish va taqdim etishdan bo'yin tovlash;

tegishli harakatni (harakatsizlikni) amalga oshirish chog'ida uning yuridik shaxs manfaatlariga zid ekanligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan bo'lsa, masalan, yuridik shaxs uchun foydasiz ekanligi yoki kontragent ("Фирма-однодневка") bajara olmasligi oldindan aniq bo'lgan bitimlarni tuzgan bo'lsa.

Quyidagi holatlar esa direktor harakatlari (harakatsizligi) oqilonalik standartiga amal qilmaslik sifatida sanab o'tiladi:

qaror qabul qilishda o'xshash holatlarda ish yuritish amaliyoti talab qiladigan zarur va yetarli axborotni olishga qaratilgan choralar ko'rmaslik;

ish uchun ahamiyatli bo'lgan o'ziga ma'lum axborotni hisobga olmasdan qaror qabul qilganlik;

o'xshash bitimlarni tuzishda, odatda, talab qilinadigan yoki yuridik shaxsning ichki hujjatlari bilan belgilangan protseduraga rioya etmasdan qaror qabul qilish (masalan, yuridik bo'lim yoki buxgalter bilan maslahatlashmaslik).

Bular tugal ro'yxat emas, ish holatlariga ko'ra boshqa xatti-harakatlar ham ushbu standartlarga zid holat sifatida baholanishi mumkin.

Maqolaning kirish qismida qayd etilganidek, fuqarolik huquqi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar barobarida korporativ munosabatlarga fidusiar majburiyatlarni olib kirishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishiga ko'ra, milliy qonunchilikka yuridik shaxs direktorining fidusiar majburiyatlari institutini kiritish vazifasi belgilandi.

Mazkur vazifa ijrosi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining yangi loyihasida yuridik shaxslar organlari va mansabdor shaxslarining fidusiar javobgarligini nazarda tutuvchi alohida norma aks ettirildi. Ushbu norma mazmuniga ko'ra, qonunga yoki yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga muvofiq, yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs o'zi vakili bo'lgan yuridik shaxs manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish olib borishi kerak. Mazkur majburiyat nafaqat yuridik, balki faktik jihatdan ham yuridik shaxsni boshqaruvchi shaxslar zimmasiga yuklatiladi. Yuridik shaxs nomidan ish olib boruvchi shaxslar yuridik shaxsning kollegial organlari hamda faktik boshqaruvchilar aybi bilan yetkazilgan zarar uchun yuridik shaxs oldida javobgar bo'ladi. Ushbu shaxslarning yuridik shaxsga birgalikda yetkazilgan zarari uchun javobgarligi solidar xususiyatga ega. Kollegial tartibda qaror qabul qilingan hollarda yuridik shaxsga zarar yetkazilishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan yoki halol harakat qilib ovoz berishda qatnashmagan shaxslar javobgarligi istisno etiladi.

Bizningcha, ushbu normada belgilangan qoidalar ahamiyati, avvalo, yuridik shaxs oldida fidusiar majburiyatga ega subyektlar doirasi kengayganida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ushbu subyektlar javobgarligi asoslari va tartibiga oid masalalar ham tartibga solingan. Biroq fidusiar majburiyatlarning bevosita mazmunini aniqlashtirishda o'zgarish bo'lmagan. Yuridik shaxs boshqaruv organlarining fidusiar majburiyatlari umumiy tarzda "yuridik shaxs manfaatlari yo'lida harakat qilish", "halollik" va "oqilonalik" standartlari bilan ifodalangan.

Xulosalar

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, fidusiar majburiyatlar ishonchga asoslangan munosabatlarni tashkil etadi. Ingliz-amerika korporativ huquqida ushbu majburiyatlar sodiqlik, halollik va lozim darajadagi g'amxo'rlik standartlari bilan belgilangan, sud pretsedentlari hamda namunaviy huquq manbalarida ularni qo'llash bo'yicha yo'nalish beruvchi holatlar sanab o'tilgan. Rus korporativ huquqida ushbu majburiyatlar kompaniya manfaatlarini ko'zlab, halol va oqilona harakat qilish lozimligi bilan umumiy tarzda mustahkamlangan, shuningdek, ularning mazmunini aniqlashga xizmat qiluvchi holatlar Oliy Arbitraj Sudi Plenumi qarori bilan tartibga solingan. Fidusiar majburiyatlar belgilanishi korporativ huquqda kompaniya va uning boshqaruvchilari manfaatlarini muvozanatini ta'minlashga, investorlar (ishtirokchilar/aksiyadorlar) tomonidan kom-

paniya faoliyatiga kiritiladigan kapital himoyasi, uning to'g'ri boshqarilishiga xizmat qiladi, shuningdek, kompaniya direktorlari vakolatlarining ushbu vakolatlar maqsadlariga muvofiq tarzda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Fikrimizcha, milliy qonunchilikda mustahkamlanayotgan yuridik shaxs boshqaruv organlari fidusiar majburiyatlarini takomillashtirish, bu borada rivojlangan mamlakatlar korporativ huquqiga yaqinlashish, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarda shakllangan tajribani hisobga olgan holda, qonun hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi tushuntirishlari bilan yuridik shaxs boshqaruv organlarining fidusiar majburiyatlarini tizimlashtirish, umumiy tushunchalar mazmunini talqin etishda yo'nalish beruvchi holatlarni aks ettirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini tasdiqlash haqida"gi qonuni loyihasi [Draft Law of the Republic of Uzbekistan "On approval of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan"]. Available at: <https://regulation.gov.uz/uz/d/29059/>.
2. Aglamazova V.V. Konceptiya fiduciarnyh pravootnoshenij i vozmozhnost' ee primeneniya v korporativnom prave Rossii [The concept of fiduciary legal relations and the possibility of its application in corporate law in Russia]. Available at: <https://lawfirm.ru/pr/index.php?id=4426/>.
3. Griffin J.W.F. Fiduciary duties of officers, directors and business owners, 2011, p. 2. Available at: https://www.davismalm.com/wp-content/uploads/2019/08/Griffin_CH8_Fiduciary_Duties.pdf/.
4. Benevolenskaja Z.Je. Fiducirnye objazatel'stva direktora kompanii po anglijskomu pravu [Fiduciary obligations of a company director under English law]. Zhurnal rossijskogo prava – Journal of Russian Law, 2006, no. 4, p. 130. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/fidutsiarnye-obyazatelstva-direktora-kompanii-po-anglijskomu-pravu/>.
5. Druzhinin G.V. Pravovaja priroda fiduciarnyh otnoshenij exlegis [Legal nature of fiduciary relations exlegis]. Pravovye issledovaniya – Legal research, 2016, no. 1, p. 26. Available at: http://exlegis.ru/ru/issue/docs/Exlegis_2016_1.pdf/.
6. Jendrzejek D.P. What Exactly Are the Duties of a Fiduciary? 2011, pp. 1-2. Available at: https://www.lawmoss.com/media/publication/724_DPJDutiesofFiduciary.pdf/.
7. Budylin S.L. Razum i dobraya sovest': objazannosti direktora v SShA, Velikobritanii, Rossii [Reason and a good conscience: duties of a director in the USA, Great Britain, Russia]. Vestnik VAS RF – Bulletin of the Supreme Arbitration Court of the Russian Federation, 2013, no. 2. Available at: <https://center-bereg.ru/b2169.html/>.
8. Forrester C.M., Ferber C.S. Fiduciary Duties and Other Responsibilities of Corporate Directors and Officers. RR Donnelley, 2012, p. 29.
9. Guth v. Loft Inc, 5 A.2d 503, 23 Del. Ch. 255, Del. 1939. Available at: <https://goo.gl/h4WBs6/>.
10. Cahn A., Donald D.C. Comparative Company Law: Text and Cases on the Laws Governing Corporations in Germany, the UK and the USA. 1st ed., 2010, 339 p.
11. Turbina I.A. Grazhdansko-pravovaja otvetstvennost' ispolnitel'nyh organov hozjajstvennyh obshhestv v RF, ES i SShA: dic. kand. jur. nauk [Civil liability of executive bodies of business entities in the Russian Federation, the EU and the United States]. Volgograd, 2016, p. 101.

12. Grazhdanskoe pravo. V 4 t. T. 1. Obshhaja chast'. Ucheb. dlja studentov vuzov, obuchajushhihsja po napravleniju 521400 «Jurisprudencija» i po special'nosti 021100 «Jurisprudencija». Red. E.A. Suhanov. 3 izd., pererab i dop. [Civil law. In 4 vol. Vol. 1. General part. Textbook. for university students studying in the direction 521400 "Jurisprudence" and in the specialty 021100 "Jurisprudence". Ed. E.A. Sukhanov. 3rd ed., revised and enlarged]. Moscow, Volters Kluver, 2006, 720 p.

13. Okyulov O. Sud va huquqni qo'llash amaliyotida adolat, insofilik, oqilonalik tamoyillaridan foydalanishning metodologik masalalari [Methodological issues of applying the principles of justice, fairness and reasonableness in judicial and law enforcement practice]. Yurist axborotnomasi – Legal information, 2020, vol. 1, no. 4, pp. 55-64.

14. Imomov N. Critical analysis of division of legal entities into types. Review of law sciences, 2017, vol. 1, no. 1, p. 10.

15. Topildiev B.R. Osnovnye uslovija dogovora doveritel'nogo upravlenija imushhestvom [The main conditions of the contract of trust management of property]. Jurist, 2017, no. 9, pp. 15-19.

16. Holmirzaev U. Problemy otvetstvennosti lic, kontrolirujushhih korporacii pered kreditorami v uzbekskom prave [Problems of liability of persons controlling corporations to creditors in Uzbek law]. Review of law sciences, 2020, no. 3. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-otvetstvennosti-lits-kontroliruyushchi-korporatsii-pered-kreditorami-v-uzbekskom-prave/> (accessed 20.12.2021).

17. Imomniyozov D. Korporatsiya ijro organlarining fidutsiar majburiyatlari qiyosiy huquqiy tahlili orienss [Comparative legal analysis of fiduciary obligations of corporate executive bodies orienss]. 2021, no. 11. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporatsiya-ijro-organlarining-fidutsiar-majburiyatlari-qiyosiy-huquqiy-tahlili/> (accessed 17.12.2021).

18. Koryogdiyev B.U. Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash fuqarolik huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida. orienss. 2021, no. 11. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/bitimni-haqiqiy-emas-deb-topish-va-uning-oqibatlarini-qo-llash-fuqarolik-huquqlarini-himoya-qilish-vositasi-sifatida/> (accessed 13.12.2021).

19. Grazhdanskij kodeks Rossijskoj Federacii [Civil Code of the Russian Federation]. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/.

20. Federal'nyj zakon Rossijskoj Federacii "Ob obshhestvah s ogranichennoj otvetstvennost'ju" [Federal Law of the Russian Federation "On Limited Liability Companies"]. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_17819/.

21. Federal'nyj zakon Rossijskoj Federacii "Ob akcionerxnyh obshhestvah" [Federal Law of the Russian Federation "On Limited Liability Companies"]. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_8743/.

22. Postanovlenie Plenuma VAS RF ot 30.07.2013 № 62 "O nekotoryx voprosax vozmeshhenija ubytkov licami, vkhodjashhimi v sostav organov juridicheskogo lica" [Resolution of the Plenum of the Supreme Arbitration Court of the Russian Federation of July 30, 2013 No. 62 "On some issues of compensation for losses by persons who are part of the bodies of a legal entity"]. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_150888/.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2021/4

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 24.11.2021-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 23,52 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 63.

TDYU tipografiyasida chop etildi.